

Yangi xizmat - Onlayn ro'yxatdan o'tish!

2021 22 Fevral

2021-yil 1-martdan boshlab "Uzbekistan Airways" AJ yo'lovchilari yangi xizmat turu - aviakompaniyaning qatnovlariga onlayn ro'yxatdan o'tish imkoniyatidan foydalanishlari mumkin. Ushbu xizmat sizga aeroportdagi ro'yxatdan o'tish punktida navbatda turmaslikka va samolyot bortida kerakli joyni tanlash imkoniyatini beradi. Endi har kim uydan chiqmasdan vaqtini tejagan holda, aviakompaniyaning qatnovlariga ro'yxatdan o'tish xizmatidan foydalanishi hamda COVID-19 virusi tarqalishi sharoitida istalmagan aloqalarni kamaytirishi mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan xursand bo'lamiz.

Sizga yoqimli va xavfsiz parvoz tilaymiz!